ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№10
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 612 sahifa,
3-oktyabr, 2025-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

The Use of Innovative Pedagogical Technologies in the Development of Critical Thinking ........................ 16
Gulnar Atakhanova Orinbaevna

Current Aspects of Designing and Implementing Extracurricular Educational Activities at the Primary General Education Level........................ 20
Amankosova Dinara Gabitovna

Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari.... 24
Axmadaliyeva Moxlaroy To'xtapolatovna

Pedagogical Model and Stages of Teaching Subjects Through a Project-Based Approach ........................ 28
Bannayev Qosimjon

Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati ........................ 31
Eshmurodova Shirin Oybekovna

Motor alaliyaning nonutqiy simptomatikasi........................ 34
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Talabalar etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari ........................ 38
Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li

Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik savodxonligini robototexnika elementlari asosida rivojlantirish........................ 41
Jabborova Umida

Fizika fanini mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida o'qitishda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari ........................ 45
Xayrullayev Asliddin Isatullayevich

Talaba tomonidan mutaxassislik tilini o'zlashtirishda monologik nutqni o'rgatishning samarali usullari masalasi haqida........................ 51
Karimov N. M.

Zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashda kasbiy motiv va motivatsiyaning o'rni ........................ 54
Melikova Elnora Shuxratovna

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda pragmatik kompetensiyaning roli........................ 58
Mustafayeva Nilufar Ulashovna

O'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari ........................ 62
Nishonova Dilafruz

Computer-Based Formative Assessment: Advantages and Challenges in Teaching English to High School Students........................ 66
Obidjonova Shokhista Bakhtiyorovna

Metata'lim texnologiyalari asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish........................ 70
O'rolboyeva Durdona Sayfiddin qizi

Sun'iy intellekt asosidagi darslarning an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligini qiyosiy tahlil qilish..... 73
Rasulev Bobirjan Atxamovich

Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari .............. 78
Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna

Innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning ilmiy-pedagogik asoslari........................ 84
Soliyev Eliyor Ravshan o'g'li

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idrokini o'yinlar yordamida rivojlantirishning samarali usullari ..... 88
Xalilova Shahnoza

Zamonaviy ta'limda kommunikativ kompetensiyaning o'rni va ahamiyati........................ 92
Yaqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi

Soliq yuki – mamlakat soliq soliq tizimining asosiy mezonidir........................ 97
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari ........................ 101
Ibodova Sarvinoz Sayfilloyevna

Oliy ta'lim muassasalarida gospital pedagogika fanini o'qitishning dolzarb masalalari va uning uslubiy ta'minoti ........................ 106
Inogamova Dilfuza Rahmatullaevna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Chizma geometriya va kompyuter grafikasi: an'anaviy fan va zamonaviy texnologiyaning uyg'unlashuvi . 111
Raximov A. M., Tairova N. S., Sabirova D. U., Xasanova S. T., Tashpulatov R. X.

Геймификация в обучении английскому языку на начальном этапе обучения ................................... 114
Курбанова Назира Низомиддиновна

Talabalarda tanqidiy va evristik fikrlashni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni ........................117
Adjiyev Nayrullo Nazrulloyevich

Konstruktiv yondashuv asosida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish metodikasi ..............................................122
Amirullayeva Barno Abdulhaqovna

Kimyo o'qitishda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning tajriba-sinov natijalari .........................126
Artiqov Maqsud Bahodirovich, Babanazarova Ayzada Omirbaevna

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilingvist sifatida shakllantirishda
til o'rganish ko'nikmalari va kompetentsiyalarining rivojlanishi ..................................................................131
Axmadjonova Gulira'no Muxtorjon qizi

Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda kooperativ ta'limning metodik yondashuvlari .....135
Botiraliyeva Gulobar Mahamadismoil qizi

Talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning pedagogik va metodik asoslari .....139
Dilbarjonov Avazbek Ravshanbek o'g'li

Teacher-Centered and Child-Centered Methods in Early Childhood Education:
Insights From Finland and Uzbekistan ..........................................................................................................143
Djaparova Gulnoza

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati"ni tashkil etish .......150
Do'stov Davron Zulhaydarovich

Theoretical, Methodological, and Practical Factors of Differentiated Education .........................................155
Ergash Shonazarovich Khasanov

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda kognitiv yondoshuv .................160
Gulbahor Xamidova

Mustaqil ta'lim – mustahkam bilim ...............................................................................................................164
Halima Shukurova Sunatullayevna

Integrating Google Classroom and Project-Based Learning for
Enhanced Synchronous and Asynchronous Education .................................................................................168
Inomkhojaeva Shodiyakhon Abdukodirkhoja qizi

O'quvchilarning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning nazariy asoslari ..........................174
Mamadaliyev Axadjon G'aniboyevich

Hududiy rivojlanishda innovatsion yondashuvlarni strategik boshqaruvga integratsiya qilish yo'llari...........177
Mo'minov Fazliddin Xusniddin o'g'li

O'rta yoshdagi ayollarda harakat faoliyatini rivojlantirishda milliy o'yinlarning pedagogik ahamiyati ...........184
Mustafoyev Sherali

Pedagogical and Psychological Foundations of Developing Higher-Order Thinking Skills in Students .......188
Nasimova Zarina Isomiddin kizi

Pedagogik ijodkorlikning kasbiy professionallikda namoyon bo'lish xususiyatlari .........................................193
Numonova Dildor Umurzoqovna

Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini
o'rganishning nazariy asoslari ......................................................................................................................196
Qarshiboyev Asliddin

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari.....................................200
Qilichova Marxabo Xudayqulovna

The Transformation of Existential Thought in British Literature: Iris Murdoch's Philosophical
Humanism and the Reinterpretation of Freedom .........................................................................................204
Rahmonqulova Zarnigor Nasimjon qizi

Sportchilarning elektron platformalardan foydalanishning metodik tahlili ....................................................209
Saydullayev Zafar Erkinovich

Adabiy ta'limda estetik tarbiya .....................................................................................................................216
Sharipov Elmurod Sa'dulla o'g'li

O'qituvchi-trenerning ko'p qirrali kasbiy-pedagogik funksiyalari ..................................................................220
Sulaymonov Jaxongir Solijonovich

Uzluksiz kasbiy rivojlanishda art-pedagogikaning o'qituvchilar hissiy farovonligiga ta'siri ..........................223
Suvanova Kamola Raimqul qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Raqamlashtirish muhitida umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish ......226
Xamidova Komila Maxmudovna

Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi......231
Yo'lchiyev Shaxriyor Xusanovich, O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi

Совершенствование профессиональных компетенций будущих инженеров на основе интегративного подхода ......235
Умарова Гулчехра Абитовна

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy qobiliyatining psixologik xususiyatlari ......238
Alanazarova Sholpan Artikbaevna, Artiqbaeva Miyassar Jumanazarovna

Biologiya ta'limida innovatsion metodlarni joriy etishda ta'lim menejmentining roli ......241
Allayorova Maloxat Normaxmat qizi

Integrating Innovative Technologies for the Enhancement of Speech and Communication Skills Among Learners With Intellectual Disabilities in Uzbekistan: Pedagogical Approaches and Developmental Outcomes ......244
Donisheva Gulruy Akhrorkulovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorlash ......247
Doniyarov Mavlonbek Arabovich

Kimyoviy birikmalarda bog'lar sonini hisoblashning yangi matematik usullari......252
Ergashev Vahob Ergashevich

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ......257
G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida steam fanlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning metodik asoslari ......261
Jamolova Sitora Muzaffar qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi ......264
Mamadiyorov Jamol

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar......268
Mamayusupova Nafisa Abdulatifovna

Para yengil atletikachilarda nayza uloqtirish texnikasini takomillashtirish uslubiyati ......271
Qiyomova Shohsanam Yarash qizi

Difficulties in Enhancing Communicativeness of Pre-Service English Teachers......275
Kurbonova Maftuna Fakhriddinovna, Mirzayeva Gulshan Azamatovna

Principles of Teaching Basic Foreign Language Skills (EFL) ......278
Samandarova Gulsara Ismatilloyevna

O'quvchilarning innovatsion ta'lim muhitida tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi ......282
Toshpulatova Farida Radjabovna

Корпоративная культура педагогов и внутренняя стабильность ДОО ......286
Буранова Шохноза Абдуразаковна

Развивать личностные качества учащихся на уроках географии......290
Шадиева Нигора Шариповна

Raqamli texnologiyalar yordamida oliy ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar ......295
Baytileuova Gulnaz Quralbay qizi

Yangi avlod pedagoglarini tayyorlash: kompetensiyalar va qadriyatlarning roli......298
Ro'ziboyeva Ma'mura Abdunabiyevna

Astronomiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanib o'qitishning ta'lim tizimidagi o'rni ......301
Barakayeva Sarvinoz To'lqunovna

Alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan ishlashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash ......305
Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Namozova Sevinch Asqar qizi

Ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik qadriyatlarning ustuvorligi......310
Jumayeva Gulnara Tursunpulatovna

Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maqsadli boshqarishga tayyorlashning nazariy asoslari ......314
Mahmudova Zulfiya Xomitovna

Pedagogical Methodology Improve Students' Professional Mobility in Acquisition of Specialty......319
Khidirova Muhabbat Murodillayevna

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish ....322
Ismoilova Surmaxon Amonovna, Yusupova Mohinur
Qoraqalpoqlarning dehqonchilik marosimlari ....326
Orinboyeva Go'zal Polatovna
The Complexity of Training Teaching Staff for Work in Public Schools Organized in Medical Stations in Uzbekistan ....330
Inogamova Dilfuza Rakhmatullaevna
Boshlang'ich ta'lim texnologiya fanini o'qitishda STEM yondashuvi orqali o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ....335
Jabbarova Zuhra Omondullayevna
Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni nutqini shakllantirish metodikasi ....338
Z. N. Mamarajabova
5–7-sinf qizlarida raqamli texnologiyalar ta'sirida tarbiya jarayonining o'ziga xosliklari....341
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi
Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish diagnostikasi: metodlar va natijalar ..345
Abduxamidova Dilorom Abdumuminovna
PISA topshiriqlari asosida o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish ....349
Axunjanova Shirmonoy Isroiljonovna
Bo'lajak surdotarjimonlar uchun faoliyat turlarini tanlashda ko'maklashish ....354
Dehqanova Muborakxon G'iyosiddinovna
Mustaqil ta'limni tashkilllashtirishda tarjimadan foydalanish jarayonlari ....357
Erkayev Elmirza Temirovich
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining o'rni....361
Jumayeva Muxlisa Shokir qizi
Tasks, Exercises, and Activities in the English Classroom: Differences, Similarities, and Effective Use .....366
Qodirov Olim Odilovich
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalalari ....372
Safarova Mohichehra Xonzafarovna
Malaka oshirish tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish masalalari....376
Saidova Dilnoza Maripovna
O'zbekiston va Yaponiya dzyudo trenerlarining mashg'ulot jarayonlarini qiyosiy tahlili....380
Sharipov Xabibullo Abduqahhorovich
"Kompyuter lingvistikasi"ning rivojlanish tendensiyasi....386
Xusanboyeva Muxlisa Ikrojon qizi
Педагогические технологии стратегического развития взаимного сотрудничества организаций дошкольного образования и родителей....392
Тухлиев Муслимбек Шерзод угли
Oliy ta'limda inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish muammolari....397
Dilbar Nurkeldiyeva
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muasasalarida tarbiyaning o'rni....401
Laylo Sharopovna Nurmuxamedova
Intellektida kamchiligi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvida muloqotning shakllanish xususiyatlari....405
Shahnoza Amirsaidova
Aqli zaif bolalarga ta'lim jarayonida o'yin faoliyatini shakllantirishning ahamiyati....409
Ziyodullayeva E'zoza Ne'matjonovna
Pedagogik texnologiyalar metodlarini tanlash va qo'llashning umumiy mezonlari ....412
Abdullayeva Komila Tursunovna
Didaktik o'yinlar vositasida 2-sinf o'quvchilarida bog'lanishli nutq ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari ....416
Askarova Gulayim Arislan qizi
Yugurib kelib uzunlikka sakrovchilarda tezkorlikni samarali va jadal rivojlantirishni ilmiy asoslash....420
Avazov Shukrullo Ibatovich, Nuraliyeva O'g'iloy Shomurotovna, Mustafayev Ismoil Nuralio'g'li
Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va zaruriyati....425
Axmedova Mastura Jamoliddinovna
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda tabiatshunoslik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ....430
Azizova Dilnora

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Bo'lajak shifokorlarda tibbiy – deontologik kompetensiyalarni shakllanishida tibbiy amaliyotning ahamiyati.....435
Babadjanova Gulchexra Baxtiyarovna
Bolaning aqliy rivojlanishini yoritadigan ko'rsatkichlar.....440
Bozorboyev Javlon Davlatali o'g'li
Bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlari.....445
Daminova Maftuna Asqarali qizi
Kreativ pedagogika fani va mantiqiy fikrlash kompetentligi orasidagi bog'liqlik.....449
Diyora Egamberdiyeva
Oilani mustahkamlovchi va ajralishiga olib keluvchi omillar.....454
Haqberdiyev Jamoliddin Abdug'affor o'g'li
Quality Management as a Functional and Attributive Characteristic of Modern Management.....458
Jabbarbergenova Bibimaryam Amangeldievna
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik va psixologik jarayonlar.....464
Mamedova Maxfuza Erkinovna
Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda yuridik ta'limning roli: tahlil va takliflar.....470
Mansurova Zilola Akromxonovna
Pedagogik ta'limda klaster yondashuvi: O'zbekiston va jahon tajribasi.....474
Nafisa Tokhirova Dilshod qizi
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari: zamonaviy yondashuvlar va innovatsion imkoniyatlarning integratsiyasi asosida shakllanish jarayoni.....478
Norqulov Lutfullo Mamarajabovich
Montessori metodikasi va undagi bolalar sensomotorikasini rivojlantirishga doir tajribalar tahlili.....484
Parmonova Laylo Ilxomovna
Molekulyar fizikani modellashtirish orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish.....488
Q. U. Tog'ayeva
Milliy tarbiyada raqamli vositalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.....493
Qo'shnazarova Nozima Maxmutjon qizi
Learning Intercultural Communication Through Social Media: the Approach of Modern Students.....498
Raxmonqulova Feruza Akmal qizi
Aqliy rivojlanishda muammolari bor maktab o'quvchilarida geometrik tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslar.....502
Shodiyeva Navbaxor Xabibulla qizi
Logopedning kasbiy faoliyatida deontologiya va kompentlikning roli va ahamiyati.....506
Temurova Gulchexra Xudoyqulovna, Isomitdinova Shaxinabonu Zavqiddin qizi
STEAM ta'limida lego konstruktorlarining o'rni va ahamiyati.....511
Toshpulatova Farida Radjabovna
Diagnostikasi va reabilitatsiya qilishda eshitishida nuqsoni bo'lgan bola va ularning ota-onalari bilan bog'liq muammolar.....514
Toshpulova Nodira Sultonmurod qizi
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligi o'rtasidagi o'zaro munosabat shakllari.....518
Turdiqulova Luiza Zayniddinovna
O'zbekistonda ESG tamoyillarining ta'limga integratsiyasi: yutuqlar, muammolar va istiqbollari.....522
Tursunova Shahzoda Baxromovna
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish.....526
Xamidova Muyassar Polsaidovna
Mustaqil ta'limni tashkil etishning asosiy didaktik prinsiplari.....530
Yuldashev Shukrullo
Комплексная методика развития и обучения юных футболистов.....536
Ортиков Умиджон Худойбердиевич
Особенности деятельности детей с нарушением зрения.....544
Юсупова Назира
Integration of Music and Language: Creative Approaches to Teaching English to Music Students.....548
Akbarova Moxichexra

Ingliz tilida yozuv malakalarini takomillashtirishda baholash metodikasi....553
Alimardonova Malika Botir qizi

Yosh kurashchilarni jismoniy va aqliy rivojlantirishda basketbol o‘yinining ahamiyati ....560
Haqnazarov Qurbon Qo‘shayevich

Voleybol murabbiylarining innovatsion fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari....566
Haqqulov Akbar Abdiraupovich

Sociolinguistic Competence and Intercultural Communicative Competence:
Intertwining Concepts and Practical Implications....571
Kuchmurodova Gulnora Khatamovna

Ilk qadam davlat dasturida steam ta’lim elementlaridan foydalanish imkoniyati ....575
Nazarova Aziza Sohib qizi

Kasbiy rivojlanish jarayonida rahbar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari....579
Roziqova Nazokat Alisher qizi

Deontologik yondashuvning nazariy-pedagogik asoslari va uning ta’lim tizimidagi ahamiyati ....583
Tashpulatova Nodira Olimjon qizi

Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikda fanlararo integratsiya asosida boshlang‘ich
ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarining metodik salohiyatini oshirish yo‘llari....586
Xashimova Aziza Alisherovna

Природа и механизм действия биологических иммуностимуляторов на организм животных....590
Койилова Мехринисо Джураевна

Badiiy asarlar ustida ishlash jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining
emotsional intellektini shakllantirish mezonlari....594
Jamalova Kamola Shahobiddinovna

Bo‘lajak o‘qituvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish asosida fizika o‘qitish
metodikasini takomillashtirish....600
Musurmonova Shaxnoza Dilshod qizi

Futbolchilarda texnik tayyorgarlikni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari....606
Babayev Anvarjon Axmedovich

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Safarova Mohichehra Xonzafarovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
magistratura talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy muhitda oʻz fikrlarini bayon qilishi, doʻstlari, ota-onalari va tarbiyachilari bilan faol muloqotga kirishishi uchun kommunikativ yondashuv masalalari oʻrganiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqi ogʻzaki va ogʻzaki boʻlmagan shakllarda rivojlanishi aniqroq yoritilgan, shuningdek, bolalarning erta yosh davridagi muloqoti shakllanmay qolishining sabablari tahlil qilingan. Bolalarni maktab ta'limiga faol tayyorlash, ularning muloqotchanligini oshirish zarurligi dolzarb masala sifatida koʻriladi. Ushbu maqolada bolaning erkin kommunikator sifatidagi roli va muloqot jarayonida oʻz fikr-mulohazalarini oʻz tili, ya'ni sheva va lahjalarida ifoda eta olish darajasi koʻrsatilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning soʻz boyligi shakllanish darajalari yoritilib, bola hayotida kommunikatsiyaning oʻrni va ahamiyati asosiy muammo sifatida tahlil etilgan.

**Kalit soʻzlar:** ogʻzaki, ijtimoiy, individuallik, muloqot, goʻdaklik, konsepsiya, monolog, dialog.

**Abstract:** The article examines the issues related to the communicative approach in developing the communicative competence of preschool children, enabling them to express their opinions in a social environment and engage in active communication with their friends, parents, and educators. The formation of preschool children's speech in both verbal and non-verbal situations is explained in more detail, and the reasons for the lack of communication development in early childhood are analyzed. The necessity of actively preparing children for school education and enhancing their communication skills is considered an urgent issue. This article emphasizes the child's role as a free communicator and the degree to which they can express their opinions in their native language, including dialects and variations. The levels of vocabulary formation in preschool children are presented, and the significance of communication in a child's life is considered a central problem.

**Key words:** verbal, social, individuality, communication, infancy, concept, monologue, dialogue.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы коммуникативного подхода к развитию коммуникативной компетентности дошкольников, что позволяет им выражать свои мнения в социальной среде и активно взаимодействовать с друзьями, родителями и воспитателями. Более подробно раскрывается формирование речи дошкольников в вербальных и невербальных ситуациях, а также анализируются причины несформированности общения у детей на ранних этапах развития. Особое внимание уделено необходимости активной подготовки детей к школьному обучению и развитию их коммуникативных навыков. В статье подчеркивается роль ребенка как свободного коммуникатора и способность выражать свои мысли на родном языке, включая диалекты и вариации. Приведены уровни формирования словарного запаса дошкольников, а также рассматривается значимость общения в жизни ребенка как центральная проблема.

**Ключевые слова:** вербальное, социальное, индивидуальность, общение, младенчество, концепция, монолог, диалог.

## KIRISH

Kommunikativ kompetentlik keng ma'noda til va nutq qobiliyatlarini oʻz ichiga olsa-da, u nafaqat soʻzlashuv, balki bir-birini tushunish, tilni ijodiy va mos ravishda ishlatish, emotsional bogʻlanishlarni aniqlash hamda boshqalar bilan samarali munosabatda boʻlishni ham nazarda tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu kompetentlik shaxsiy rivojlanishning asosiy elementi boʻlib, aynan shu yoshda ularning ijtimoiy muhitga moslashishining dastlabki bosqichlari boshlanadi. Bugungi kunda koʻpchilik maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot jarayoniga kirishishda qiynalishadi. Bunga sabab – bolalarning atrofdagilar bilan yetarlicha muloqotga kira olmasligidir. Bolalarning kommunikativ aloqalari goʻdaklik davridan boshlanadi: bola eng sodda soʻzlar yordamida atrofdagilar bilan muloqot oʻrnatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetent-

ligi har bir yosh bosqichida o'ziga xos tarzda shakllanadi. Ularning muloqotga kirishish tezligi va chuqurligi, o'z navbatida, kattalarning ham faol ishtirokiga bog'liq. Demak, bola oilada faol muloqotda bo'lsa va keyinchalik maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malakali pedagog-tarbiyachilar nazorati ostida kommunikativ jarayonni rivojlantirsa, uning muloqotchanligi yanada kuchayadi hamda o'z fikrini erkin bayon etishda qiynalmaydi.

Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar umumdidaktika tamoyillariga asoslanib mashg'ulotlar o'tkazishlari, zamonaviy innovatsion texnologiyalar yordamida bolalarning muloqotchanligini oshirishlari, shuningdek, ular bilan bevosita nutqiy suhbatlarni shakllantirishlari zarur. Bunday jarayonlarni amalga oshirishda maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari ham muhim o'rin tutadi. Chunki ushbu davlat talablarida kommunikativ kompetensiya alohida mezon sifatida belgilangan bo'lib, unda bolaning har bir rivojlanish sohasi inobatga olingan. Bola kommunikativ kompetensiyasi orqali atrof-muhitni tasvirlaydi, anglagan borliqni muloqoti orqali boshqalarga yetkazadi. Aynan shu yosh davrda bolada "Men" konsepsiyasi shakllanadi, individuallik xususiyati ortadi hamda u muloqot orqali ijtimoiy munosabatlarga faol kirishadi.

Kommunikativ kompetentlik – bu bolaning muloqot qilish, boshqa odamlar bilan fikr almashish, o'z fikrini to'g'ri va aniq ifodalash qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish ularning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlash, jamiyatga moslashuvchanligini oshirish va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasi, so'zlashish qobiliyati darajasi va kundalik muloqot jarayonida olib borilgan dastlabki kuzatuv ishlarida mavzuning dolzarbligi quyidagi holatlar bilan asoslanadi: maktabgacha yoshdagi bolalarning kattalar bilan muloqotga kira olmasligi va o'z ota-onalariga fikrini yetarlicha bayon qila olmasligi; bolalarga tarbiyachilar tomonidan yetarlicha didaktik ta'lim berilmasligi natijasida ularning nutqiy savodxonligi pastligi hamda fikrlash doirasining torligi; bolalar muloqot jarayonida tengdoshlari bilan kommunikativ munosabatlarga yetarlicha kira olmasligi; bolalar maktab ta'limigacha bo'lgan davrda o'z lug'at zaxirasini boyita olmasligi, uzun so'zlar va gaplarni to'liq, ravon ayta olmasligi hamda o'z fikridan tez chalg'ishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son[1]li "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari va ushbu sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazkur maqolaga muayyan darajada xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ rivojlanishi bevosita tevarak-atrof va insonlar bilan bog'liqdir. Bunda, albatta, bolaning ota-onasi, tarbiyachilar hamda o'rtoqlari asosiy rol o'ynaydi. Bola ulg'aygan sari uning ijtimoiylashuvi ortadi, odamlar orasidagi muloqotchanligi kuchayadi. Mashg'ulot jarayonida bola ko'plab savollar beradi va ularga o'zi istagan javoblarni olishni xohlaydi. Agar ijtimoiy muhitda bola o'z vaqtida nutqini yetarli darajada rivojlantira olmasa, bu salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ba'zi hollarda bolalarning tili chiqmay, imo-ishoralarga tayanib qolishi ham kuzatiladi. Ko'pincha bunday holatlar kirishuvchanligi past bo'lgan bolalarda uchraydi. Shuning uchun tarbiyachilar bunday tortinchoq, muloqotchanligi past bolalar bilan individual shug'ullanishi zarur.

Bu haqda Sharq allomasi Abu Ali ibn Sino ham bola tarbiyasi bilan yakka tartibda shug'ullanish zarurligini ta'kidlagan [1, 67]. Kommunikativlik – bu shaxslar orasidagi axborot almashinuvi, aloqa jarayonidir. Kompetensiya esa har bir sohaning bilish kalitidir. Bolalarning muloqotchanlik darajasining oshishiga ularning atrofidagi o'rtoqlari ham ta'sir etadi. Agar bola o'rtoqlari orasida muloqot qilishda qiynalsa, u o'z kommunikativ kompetensiyasini yetarli darajada rivojlantira olmaydi.Bunday holatlarda ota-onalar va tarbiyachilar bolaga yordam berishlari, bolalar orasidagi muloqotni muvozanatli tashkil etishlari lozim. Shuningdek, bolalarning kommunikativlik qobiliyatini rivojlantirishda turli metodlardan foydalanish zarur. Masalan, o'yin metodi, suhbat va munozara metodlari. Bu metodlarni qo'llashda psixologik mashqlarni ham tatbiq etish bolalarning kirishuvchanligini oshiradi hamda faol nutq shakllanishiga yordam beradi.

O'yin metodi orqali bolalar turli rollarga kirishib, boshqalar bilan muloqot qilishni o'rganadilar. Suhbat metodi esa og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, boshqa metodlar ham bola kommunikativligining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.G'arb olimlari ham bolalarning kommunikativ kompetensiyasi haqida bir qancha fikrlar bildirganlar. Masalan, G'arb olimi H. Xomiskiy shunday ta'kidlaydi: "Til kompetensiyasi insonning ichki mental grammatikasidir. Unda til qoidalari abstrakt ko'rinishda bo'lib, ona tilida faoliyat yuritish individning ong ostida inkusiya shaklida tasavvur qilinadi" [2, 67]. Yana bir olim, psixolog R. S. Hemov esa shunday deydi: "Kompetentlik – bu aniq bir bilimni egallash, qandaydir sohaning imkoniyatlaridan xabardor bo'lishdir." G'arb olimlari kommunikativ kompetentlik masalasida ko'plab tavsiyalar bergan va o'z qarashlarini ilgari surganlar.

---

1 https://lex.uz/docs/-4327235

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishda ularning yosh chegaralarini ham hisobga olish zarur. Chunki bolalar yoshiga qarab, ulardagi muloqot shakli oʻzgaradi. Masalan, 3–4 yoshli bolalar juda koʻp savollar beradi va oʻzlari xohlagan javobni kutadi. Bu yoshdagi bolalar dunyoni oʻz tasavvurlari orqali tushunadi va savollariga doimo javob kutadi. Ushbu davrda asosan dialog nutqi rivojlanadi. Bolalarning 6–7 yoshlarida esa monolog nutqi shakllana boshlaydi. Bolalar hayotidagi har ikki nutq shakllanishi ularning ijtimoiy hayotida kommunikativ nutqning qanchalik darajada rivojlanganligiga bogʻliqdir.

Har qanday yoshda ham bola oʻzi uchun haqiqiy kommunikator hisoblanadi va oʻz qarashlarini faqat nutq orqali emas, balki imo-ishoralar orqali ham tushunarli tarzda ifodalay oladi. Chunki bolalar oʻzlariga ishonadi va hissiy emotsiyalarini yashirmagan holda fikrlarini bayon etadilar. Bunday bolalar yaxshi oilaviy muhitda oʻsib-ulgʻaygan taqdirda, jamiyat rivojiga katta hissa qoʻshadigan insonlar boʻlib yetishadilar.

Bolaning muloqotdagi oʻzini tutishi uning umumiy shaxsiy rivojlanishiga, bilim va koʻnikmalarni egallashiga, shuningdek, jamiyatga moslashishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Sinf, oʻyinchoqlar yoki tengdoshlari bilan muloqot qilish bolalarning nutqini va hissiy intellektini rivojlantirishga yordam beradi. Yaxshi kommunikativ kompetensiyaga ega boʻlgan bolalar boshqalar bilan munosabatda ishonchli boʻladilar hamda kelajakda ijtimoiy va professional muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatiga ega boʻladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativligini oshirishda oʻyin metodidan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan, 6–7 yoshli bolalarning “doʻkon-doʻkon” oʻyini ularning jamiyat hayotidan olingan misollar asosida ijtimoiy muloqotga kirishishiga yordam beradi. Avval muloqotga kirishish darajasi past boʻlgan bola ham oʻrtoqlari bilan tez-tez bunday oʻyinlarni oʻynash orqali oʻz nutq qobiliyatini oshiradi. Shunday qilib, oʻyin metodi orqali bogʻcha yoshidagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlanadi. Buni bogʻchadagi ikki guruh misolida ham koʻrish mumkin. Birinchi guruhda oʻyin metodidan foydalanilmay suhbat oʻtkazilganda, bolalar kamgap va muloqotchanligi past boʻlgani kuzatildi. Ikkinchi guruhda esa oʻyin metodi asosida “bozor-bozor” oʻyini oʻtkazilgach, bolalarning kommunikativ kompetentligida ancha oʻsish kuzatildi. Demak, oʻyin metodi orqali bolalarning kommunikativ kompetentligini oshirish, ularning muloqot koʻnikmalarini rivojlantirish mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh doiralariga qarab, ularning savollariga imkon qadar javob berish kerak. Chunki bola psixologiyasiga yomon taʼsir qiladigan manbalardan foydalanish, yaʼni bolalar savoliga eʼtiborsiz qarab javob bermaslik yoki ortiqcha jahl qilish bola muloqotchanligini pasaytirib yuboradi. Bunday hollarda ota-onalar va tarbiyachi-pedagoglarga quyidagi talablar qoʻyiladi: bolalarning savollariga erinmasdan, toʻliq javob berish; bolalar fikrlash doirasidan chetga chiqmagan holda, javobni toʻliq, tushunarli va bola tilida yetkazib berish; bola doʻstlari bilan urushish yoki tortishish holatlaridan shikoyat qilib oʻz “men”ini ustun qoʻyganda, vaziyatga toʻgʻri baho berib, adolatli yechim topish; bolaning qiziquvchanligini inobatga olgan holda, mashgʻulotga yoʻnaltirib, unga motivatsiya berish; bolalar bilan tez-tez suhbat metodini oʻtkazish va kommunikativ kompetensiyasini oshirish zarur. Bolaning aqliy rivojlanishiga mos holda unga vazifa berilishi lozim.

Aksariyat hollarda bola bu vazifani bajara olmay, tushkunlikka tushib qoladi va ruhiyati pasayib, muloqotchanligini yoʻqotishi mumkin. Shuning uchun har bir topshiriq hamda tushuntirish ishlari bola yoshiga mos boʻlishi, bolalarda kommunikativ kompetentlikning yaxshi shakllanishiga zamin yaratadi. Buni bir necha usullar doirasida koʻrishimiz mumkin [3, 554]. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun oʻyin va oʻyin faoliyatlari oʻrganishning muhim vositasi boʻlib xizmat qiladi. Oʻyinlar orqali bolalar oʻzaro muloqot qilishni, boshqa odamlarning nuqtai nazarini tushunishni va ijtimoiy muhitda toʻgʻri oʻzini tutishni oʻrganadilar. Bu jarayonda bolalar kreativlikni rivojlantiradilar hamda oʻz fikrlarini samarali ifodalashni oʻrganadilar. Kitoblar va hikoyalar orqali bolalar til va nutq koʻnikmalarini rivojlantiradilar.

Ota-onalar va tarbiyachilar bolalar bilan birgalikda hikoyalar oʻqib, ularni muhokamaga solishlari, savollar berishlari va bolaning fikrini tushunishlari mumkin. Bu jarayon bolaning nutqini rivojlantiradi hamda unga oʻz fikrini toʻgʻri ifodalashni oʻrgatadi. Bolalar oʻzaro muloqot qilish uchun ijtimoiy vazifalarni bajaradilar. Masalan, birgalikda oʻyinchoqlarni yigʻish, tasvirlar yaratish yoki guruh ishlari tashkil etish orqali ular muloqot qilishni, boshqalar bilan hamkorlikni oʻrganadilar. Bu bolalarda kommunikativ koʻnikmalarni shakllantiradi va ularni oʻzlarini erkin ifoda etishga oʻrgatadi. Hissiy intellekt bolalar uchun kommunikativ kompetentlikning ajralmas qismidir. Bolalar oʻz emotsiyalarini tushunish va boshqalar bilan ular haqida muloqot qilishni oʻrganishlari kerak. Masalan, oʻz hissiyotlarini ifodalash, boshqalarning his-tuygʻulariga hurmat bilan qarash hamda muammolarni hal qilishda hissiy muvozanatni saqlash kommunikativ kompetentlikni rivojlantiradi [4, 556].

## XULOSA

Quyidagi bayon qilingan ilmiy tadqiqot ishimiz mazkur xulosani asoslaydi. Tarbiyachilar va ota-onalar bolalarga doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashni taqdim etishlari zarur. Ularning ishonchli va mehribon muloqoti bolalarni o'ziga xos va ijtimoiy jihatdan moslashtiradi. Tarbiyachilar bolalarni nafaqat to'g'ri so'zlashga, balki boshqalar bilan ochiq va halol muloqot qilishga ham o'rgatishlari kerak. Bunda maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda ota-onalar ham, tarbiyachi-pedagoglar ham birdek xizmat qilishi, bola esa ijtimoiy jamiyatda muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirishi bayon qilingan. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablaridagi mezonlardan biri bo'lgan kommunikativ kompetentlikni bolalar orasida rivojlantirishga erishilishi kutilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish – bu jamiyatga ijtimoiy moslashgan va o'z fikrlarini aniq ifoda etuvchi shaxslar yetishtirish yo'lida amalga oshiriladigan muhim ishdir. O'yin, kitoblar, ijtimoiy vazifalar hamda hissiy intellektni rivojlantirish usullari yordamida bolalar ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlashadi. Tarbiyachilar va ota-onalar bolalar bilan to'g'ri muloqot qilib, ularni muvaffaqiyatli kelajak uchun tayyorlashda asosiy rol o'ynaydilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Komilova Dilnozaxon Abdulxaevna. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga oid nazariyalar. UDK.
2. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. Питер, 2013. – 713 с.
3. Djurayev R.X., Tolipov O'.Q., Safarova R.G'. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2008. – 196 b.
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi O'RQ-595-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son. – 20 b. Elektron manzil: https://lex.uz/docs/4646908.
5. Komilova Dilnozaxon Abdulxayevna. Kommunikativ kompetensiya – maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvining muhim mezoni. www.ares.uz, Volume 1 | Issue 3 | 2020. ISSN: 2181-1385.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №10**



© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.